

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUVOITOV SIROJIDDIN HIKMATULLAYEVICH

**O‘ZGARAYOTGAN DUNYO TARTIBOTIDA TURKIYANING
ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI**

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract
of the Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science**

Abduvoitov Sirojiddin Hikmatullayevich

О‘zgarayotgan dunyo tartibotida Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni 3

Абдувоитов Сирожиддин Хикматуллаевич

Роль Турции в современных международных отношениях в условиях меняющегося мирового порядка 25

Abduvoitov Sirojiddin Hikmatullayevich

Turkey's role in modern international relations in a changing world order 49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных научных работ
List of Published Scientific Works 53

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUVOITOV SIROJIDDIN HIKMATULLAYEVICH

**O‘ZGARAYOTGAN DUNYO TARTIBOTIDA TURKIYANING
ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI**

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ss537 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Shavkat Jumaboevich
tarix fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Sayfiddin Axmatovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Yakubov Ildar Xarasovich
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSs.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (99-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «11» avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil «11» avgust dagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

O.I. Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E.S. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda xalqaro miqyosda murakkab vaziyat hukm surmoqda va dunyo prognoz qilish qiyin bo'lgan va hatto oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarni keltirib chiqaradigan fundamental transformatsiyalarni boshdan kechirmoqda. Bundan tashqari, jahon sahnasida o'zaro ishonch va bir-birini tushunish inqirozi keskin sezilmoqda. Global va mintaqaviy xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora kuchaymoqda va yangi xavf-xatarlar vujudga kelmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy xalqaro munosabatlarda sodir bo'layotgan transformatsiya jarayonlarini ilmiy tahlil qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiya o'zining geostrategik mavqeyi, rivojlanib borayotgan harbiy-siyosiy kuchi, g'arb va sharq o'rtasida mohirona harakat qilishi va mustaqil tashqi siyosat yuritishi natijasida nafaqat Yaqin Sharq mintaqasida, balki global o'yinchi sifatida ham faol rol o'ynamoqda. Ayniqsa, XXI-asr boshida mamlakat tashqi siyosati sezilarli transformatsiyaga uchradi. So'nggi yillarda, Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz va Sharqiy Yevropa kabi mintaqalarda sodir bo'layotgan siyosiy inqiroz va mojarolarni hal etishda Turkiyaning faolligi ortib bormoqda. Anqaraning tinchlik muzokaralardagi va harbiy harakatlardagi ishtiroki uning nafaqat musulmon olamida, balki dunyodagi qudratli davlatlar oldida ham mavqeyini oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan jahondagi rivojlangan mamlakatlarning bir qator yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida Turkiya tashqi siyosiy faoliyatining konseptual asoslari, zamonaviy yo'nalishlari va uning zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta'sirini dolzarb ilmiy muammo sifatida tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ochiqlik va konstruktivlikka asoslangan pragmatik tashqi siyosatida Turkiya Respublikasi muhim va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi samarali aloqalar o'rnatilishida avvalo, ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va qat'iyati muhim asos bo'ldi. Binobarin, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va qardoshlik rishtalariga asoslangan keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish har ikki davlat tashqi siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Qolaversa, "hozirda turk qardoshlarimiz bizdan minglab kilometr olisda yashayotgan bo'lsalar-da, bizlarning tillarimiz va dillarimiz nihoyatda yaqindir. Bizning tarixiy ildizlarimiz bir, bugungi orzu-intilishlarimiz ham mushtarak"¹ ekanini qayd etish maqsadga muvofiq.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-avgustdagi 494-sonli "O'zbekiston

¹ O'zbekiston va Turkiya munosabatlari keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tariladi. 30.03.2022. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sahifasi: <https://president.uz/oz/lists/view/5090>

Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, xususan Turkiya va turkiy davlatlar bilan strategik hamkorlik aloqalariga oid konseptual va strategik g'oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot davomida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganib chiqilgan bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin²:

birinchi guruhga o'zbekistonlik olimlarning ishlari kiritilgan bo'lib, D.Sayfullayev, H.Sadibaqosev, M.Muhammadsidiqov, A.Jalilov, R.G'oziyev, H.Azimov, M.Abdurazzoqova, Q.Rajabov, A.Nazarov, N.Abdullayev, R.Jumayev, B.Imamov kabi tadqiqotchilarning asarlarida XXI-asrdagi fundamental transformatsiyalar va ularning zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta'siri, shuningdek O'zbekiston va Turkiya o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari, Suriya inqirozining Turkiyaga ta'siri, Turkiya va Xitoy munosabatlari kabi mavzularda ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ikkinchi guruhdan turkiyalik olimlarning ilmiy izlanishlari o'rin olgan. A.Davuto'g'lu, M.Ataman, F.Armao'g'lu, T.Bilener, A.Balji, K.Kanat, O.Sander, F.So'nmezo'g'lu, A.Bayraktar, H.Papuchchilar, T.O'g'uzlu, B.Ersanli, T.O'zbilen, A.O'zkan, S.Dursun, M.Eksi, P.Erjan, F.Tuna kabi olimlarning tadqiqotlarida zamonaviy xalqaro munosabatlarning nazariy va amaliy jihatlari, Turkiya tashqi siyosatining g'oyaviy asoslari, Turkiyaning Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va G'arbdagi tashqi siyosiy strategiyasi, Anqaraning dunyodagi ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy va mafkuraviy konsepsiyalarning amaliyotda tatbiq etilishiga doir jihatlari yoritilgan. Qolaversa, Turkiyaning "SETA", "Strategik dushunce", "ORSAM", "ANKASAM" kabi yetuk "Aql markazlari" ning siyosiy, ilmiy tahliliy ma'lumotlari o'rganilgan.

Shuningdek, o'rganilgan adabiyotlar sirasiga Turkiya Respublikasining Konstitutsiyasi, "Tashqi ishlar vazirligi to'g'risida"gi qonun, prezident va boshqa tuzilmalarning bayonotlari, shu jumladan, mamlakat tashqi ishlar vaziri Hoqon Fidanning ma'ruza va maqolalari va hozirgi kunda Turkiya tashqi siyosat yo'nalishini belgilab beradigan "Turkiya asri" konsepsiyasi kabi normativ-huquqiy hujjatlar kiradi.

² Zikr etilgan olimlarning tadqiqot ishlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Uchinchi guruhga rossiyalik olimlarning mavzuga oid ilmiy ishlari kiritilgan. V.Avatkov, R.Shangaraev, R.Gayfutdinov, I.Ivanova, A.Gajiyev, S.Drujilovskiy, V.Nadein-Rayevskiy, P.Shilkov, A.Irxin, Ya.Kudryashova, N.Masumova, I.Svistunova, N.Ulchenko, Y.Urazova, V.Sibenko va boshqa olimlarning tadqiqotlarida qisman hozirgi zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishi, Turkiyaning Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va turkiy davlatlar, shuningdek, Turkiyaning Rossiya va G‘arb davlatlariga qaratilgan tashqi siyosatining mazmun-mohiyati ilmiy tahlil qilingan.

To‘rtinchi guruhga g‘arb olimlarining mavzuga oid ilmiy tadqiqotlari kiritilgan. K.Robinson, G.Barkey, G.Dalay, P.Kubichek, A.Stergiou, S.Rossiter, F.Larrabi, A.Mango, A.Rabasu kabi olimlarning tadqiqotlarida Turkiya tashqi siyosatining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, Turkiyaning Yaqin Sharq va G‘arbdagi tashqi siyosiy strategiyasi, Anqaraning dunyodagi ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy va mafkuraviy asoslariga doir jihatlari o‘rganilgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, yurtimizda Turkiya tarixi, Markaziy Osiyo va Turkiya o‘rtasidagi turli sohalarga oid bir qator ilmiy ishlar mavjudligiga qaramay, zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiya yuritayotgan tashqi siyosat zamonaviy xalqaro munosabatlarga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha tahlil etilmagan. Bu esa tadqiqot o‘tkazish uchun ushbu mavzuning tanlanishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘zaro bog‘liqligining barqaror rivojlanish omillari va istiqboli (O‘zbekistonning tashabbuslari asosida)” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi davrda jahonda sodir bo‘layotgan geosiyosiy jarayonlar natijasida o‘zgarayotgan dunyo tartibotida Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkiya tashqi siyosatining konseptual asoslari va zamonaviy yo‘nalishlarini tadqiq etish va zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining o‘zgarishini baholashga doir asosiy yondashuvlarni shakllantirish;

Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi roli va ahamiyatini aniqlash va uning faol tashqi siyosatini mintaqa va zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta‘sirini baholash;

Turkiyaning Yaqin Sharq, G‘arb, Markaziy Osiyo va turkiy davlatlarga nisbatan olib borayotgan faol tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini va ta‘sirini aniqlash;

Turkiyaning mintaqaviy nizolarni hal qilishdagi vositachiligini xalqaro xavfsizlik doirasida o‘rganish va nizolarni hal qilish bo‘yicha olib borayotgan siyosatini tahlil qilish;

Anqaraning turkiy davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarining rivojlanish bosqichlari, hamkorlikning hozirgi yo‘nalishlarini tadqiq etish va Turkiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirish xususiyatlari va istiqbollarini aniqlash;

Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tashqi siyosiy munosabatlarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zgarayotgan dunyo tartibotida Turkiya tashqi siyosati transformatsiyasi belgilangan.

Tadqiqot predmetini Turkiya tashqi siyosatining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni, turli mintaqalarda sodir bo‘layotgan mojarolarni hal etishga qaratilgan strategiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada muammoviy-xronologik, tizimlashtirish, tuzilmaviy-funksional, qiyoslash, tarixiylik, tahlil va sintez, institutsional va fanlararo yondashuv, kontent-tahlil, prognozlashtirish va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘p qutbli yangi dunyo tartibotining transformatsion sharoiti hamda G‘arb bilan munosabatlardagi muammolar tufayli Turkiya tashqi siyosatining Sharqqa tomon o‘zgarishi, Turkiya tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi Turkiya” va “Yangi Osiyo” konsepsiyalariga ko‘ra dalillangan;

zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining murakkab tus olayotgan bugungi sharoitida Turkiya tashqi siyosati transformatsiyasining sabablari va turli mintaqalarda nizolarni hal qilishdagi siyosiy va diplomatik vositachilik taklifini faol qo‘llayotganligi uning mamlakat hukumati tomonidan ilgari surilayotgan Turkiyaning “ko‘p vektorli diplomatiyasi” doirasida amalga oshirilayotgani ilmiy asoslangan;

xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlarga ko‘ra, Turkiya tashqi siyosatining muhim vositasi hisoblangan “yumshoq kuch”dan turli mintaqalardagi muammo va nizolarni hal qilishda foydalanayotgani hamda bu orqali mintaqaviy va jahoniy ta‘sir kuchini oshirayotganligi, xususan, turkiy davlatlar makonida undan keng ko‘lamda unumli foydalangan holda “Turkiy dunyo” makonini yaratish g‘oyasini ilgari surayotgani dalillangan;

O‘zbekistonning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqot o‘rnatishga qaratilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalar zamonaviy xalqaro munosabatlarning o‘zgaruvchan sharoitida milliy manfaatlarga asoslangan holda yuritilayotganligi, dunyo bozorlariga birgalikda chiqish hamda Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi savdo uchun muhim zanjir yaratish zaruriyati, “O‘rta yo‘lak” loyihasiga muqobil tarzda turkiy davlatlarning keng qamrovli hamkorligini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Turkiya – Markaziy Osiyo yo‘lagi” loyihasini ishlab chiqish taklifi ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasida Turkiya tashqi siyosiy faoliyatining konseptual asoslari va ustuvor yo‘nalishlarini nazariy-metodologik jihatdan asoslab berilgan;

Turkiya Respublikasi turkiy davlatlarga o‘zining (“yumshoq kuch” siyosati) madaniy diplomatiyasini targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalari hamda TIKa,

YTB, TÜRKPA, TÜRKSOY, Yunus Emre kabi institutlariga tayanishi ochib berilgan;

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Turkiya bilan savdo-iqtisodiy, transport-logistika, turizm, xavfsizlik, ta’lim, fan, madaniyat va diniy-ma’rifiy sohalarda faol hamkorlik qilish uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining respublika miqyosidagi va xalqaro darajadagi ilmiy konferensiyalar materiallarida, O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijda o‘tkazilgan ilmiy konferensiyalar materiallarida e’lon qilinganligi hamda amaliyotda joriy qilinib, vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangani bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* mamlakatimizda tashqi siyosat, mintaqashunoslik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlari, o‘quv muassasalar, aql markazlar, soha mutaxassislari va bu yo‘nalishga qiziquvchilarga kelgusi tadqiqotlari uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari, aql markazlar va boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan ilmiy izlanishlar, axborot-tahliliy va dasturiy hujjatlarni tayyorlashda, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy xalqaro munosabatlar sohasidagi fanlarni o‘qitishda amaliy metod va metodologik jihatdan xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zgarayotgan dunyo tartibotida Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

ko‘p qutbli yangi dunyo tartibotining transformatsion sharoiti hamda G‘arb bilan munosabatlardagi muammolar tufayli Turkiya tashqi siyosatining Sharqqa tomon o‘zgarishi, Turkiya tomonidan ilgari surilayotgan “Yangi Turkiya” va “Yangi Osiyo” konsepsiyalariga ko‘ra dalillanganligiga oid xulosa va tahliliy ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan ish jarayonida foydalanish uchun qabul qilingan (*TIVning 2025-yil 29-yanvardagi 10-2072-son ma’lumotnomasi*). Natijada, Turkiya tashqi siyosati sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boruvchi tahliliy markazlarning bazasini kengaytirish imkonini bergan;

zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining murakkab tus olayotgan bugungi sharoitida Turkiya tashqi siyosati transformatsiyasining sabablari va turli mintaqalarda nizolarni hal qilishdagi siyosiy va diplomatik vositachilik taklifini faol qo‘llayotganligi uning mamlakat hukumati tomonidan ilgari surilayotgan Turkiyaning “ko‘p vektorli diplomatiyasi” doirasida amalga oshirilayotgani ilmiy asoslanganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (*Markazning 2025-yil 21-iyuldagi 02/347-sonli dalolatnomasi*). Natijada, Markaz Turkiyaning “Diyonat” vaqfi huzuridagi Islom tadqiqotlari markazi (ISAM) va Turkiya Qo‘lyozma asarlar

Bosh boshqarmasi bilan o‘zaro anglashuv memarandumini imzolashda va O‘rta asrlarda o‘tgan Islom ulamolari va mutafakkirlarining hadisshunoslik, kalom (ilohiyot ilmi), fiqh (Islom huquqi) va Islom tarixi yo‘nalishlari bo‘yicha diniy-ma‘naviy merosini yanada chuqurroq tadqiq etishga oid loyihalarni amalga oshirishda xizmat qilgan;

xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlarga ko‘ra, Turkiya tashqi siyosatining muhim vositasi hisoblangan “yumshoq kuch”dan turli mintaqalardagi muammo va nizolarni hal qilishda foydalanayotgani hamda bu orqali mintaqaviy va jahoniy ta‘sir kuchini oshirayotganligi, xususan, turkiy davlatlar makonida undan keng ko‘lamda unumli foydalangan holda “Turkiy dunyo” makonini yaratish g‘oyasini ilgari surayotgani dalillanganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatida foydalanilgan (*Qo‘mitaning 2024-yil 26-dekabrda 02-02/02/1/3439-son dalolatnomasi*). Natija sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan;

O‘zbekistonning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqot o‘rnatishga qaratilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalar zamonaviy xalqaro munosabatlarning o‘zgaruvchan sharoitida milliy manfaatlariga asoslangan holda yuritilayotganligi, dunyo bozorlariga birgalikda chiqish hamda Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi savdo uchun muhim zanjir yaratish zaruriyati, “O‘rta yo‘lak” loyihasiga muqobil tarzda turkiy davlatlarning keng qamrovli hamkorligini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Turkiya – Markaziy Osiyo yo‘lagi” loyihasini ishlab chiqish taklifi ilmiy asoslab berilganligi xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (*Qo‘mitaning 2025-yil 28-aprelda 14-07-162-son ma‘lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiya ishidagi ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalardan Qo‘mitaning Turkiya bilan do‘stona xalqaro madaniy-ma‘rifiy aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish mavzusidagi konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek madaniy-gumanitar sohalardagi tadbirlarni tashkil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola, (jumladan, xorijiy jurnallarda 2 ta, milliy jurnallarda 12 ta maqola) e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi aniqlangan. Ilmiy tadqiqot usullari, olingan natijalarining ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e‘lon qilingan ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan, ishning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning “Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiya tashqi siyosatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasini o‘rganishning ilmiy-nazariy jihatlarini, yangilanayotgan dunyo tartibotining shakllanish muammolariga doir asosiy yondashuvlar, qarashlar, xulosalar, shuningdek, Turkiya tashqi siyosati shakllanishining nazariy-konseptual asoslari va zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Darhaqiqat, SSSR parchalanganidan keyin zamonaviy dunyo tartibotini baholashda turli xil metodologik yondashuvlar mavjud. Ba‘zi siyosatshunos olimlar xalqaro munosabatlar tizimi postbipolyar davrda ekani, dunyo tartiboti hali to‘liq aniqlanmagan ko‘p markazli yoki qutbsizlik va hatto tartibsizlik (xaotik) sifatida baholamoqdalar³. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi atrofidagi bahsli munozalarda yangilanayotgan dunyo tartibotining shakllanish mavzusi ham alohida o‘rin egallamoqda. Zamonaviy siyosatshunoslikda ushbu muammoni ilk bor tadqiq qilgan g‘arblik olimlar R.Koslovski (AQSh) va F.Kratochvilla (Germaniya) zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi transformatsiyasi 1989-yilda “sotsialistik lager”ga kirgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ro‘y bergan “Baxmal inqiloblari” yohud “Yumshoq inqilob” bilan boshlangan, deb hisoblaydi⁴. Bizning fikrimizcha, xalqaro munosabatlar transformatsiyasi “sovuq urush” yakunlangandan keyin boshlangan jarayon deb hisoblaymiz. “Sovuq urush”dan so‘ng, AQSh gegemonligi ustun bo‘lishiga qaramasdan, yangi dunyo tartiboti to‘liq o‘rnatilmadi, uning shakllanishi hamon davom etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu holatga nisbatan “qoidalarsiz o‘yin”, “yangi sovuq urush”, “sovuq dunyo”, “yangi dunyo tartibsizligi” kabi ta‘riflarni ham uchratish mumkin⁵. Taniqli olim Genri Kissinjer ham “G‘arb tomonidan e‘lon qilingan va o‘rnatilgan tartibot o‘zining burilish nuqtasiga yetib keldi” deydi⁶. Ushbu fikrni qo‘llaydigan F.Zakariya, A.Kuli, D.Nekson kabi boshqa yetakchi olimlar AQSh o‘z yetakchiligidagi tartibotni

³ Володин А.Г. Россия в «свободной геометрии» мировой политики // Геополитический журнал, 2015. № 4 (11). С. 6-14.

⁴ Rey Koslowski and Friedrich V. Kratochwil. Understanding Change in International Politics: The Soviet Empire's Demise and the International System. Source: International Organization, Vol. 48, No. 2 (Spring, 1994), pp. 215-247. <http://www3.nccu.edu.tw/~lorenzo/Koslowski%20Soviet%20Demise.pdf>

⁵ Ш.Ш.Таджиев. Международная политика: растущие вызовы и новые перспективы. Журнал «Международные отношения». №1-2/2020. С.66-80.

⁶ Киссинджер, Г. Мировой порядок / Г. Киссинджер. – М.: АСТ, 2015. – 512 с.

o'zgartirishga harakat qilayotgan eng kamida ikkita "revizionist" mamlakat – Xitoy va Rossiya tomonidan raqobatga duch kelayotganini ta'kidlashadi⁷. Fikrimizcha, aynan mana shu holat bir qutbli dunyo tartiboti o'zgarayotganini belgilab bermoqda. Ushbu jarayon, bir tomondan, xalqaro munosabatlarda yangi kuchlarning o'z pozitsiyalarini kuchaytirishga intilishlarida, ikkinchi tomondan, AQSh ittifoqchilarining mustaqil siyosat yurgizishga bo'lgan sa'y-harakatlarida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tendensiya ayniqsa prezident D.Tramp administratsiyasi yuritgan tashqi siyosiy faoliyat ta'sirida kuchaydi.

Ma'lumki, Turkiya Respublikasi paydo bo'lganidan buyon, mamlakat tashqi siyosatining asosini M.K.Otaturk tomonidan shakllantirilgan tashqi siyosat doktrinasi tashkil qiladi. Otaturk mamlakatda "kamolizm" g'oyasi va "Yurtda tinchlik, dunyoda tinchlik" shiorini ilgari surib, "g'arblashtirish" siyosatini amalga oshirgan. Ushbu mafkuraviy inqiloblar turk jamiyati tomonidan "milliy xiyonat" sifatida qabul qilinmagan. Aksincha, islomga bo'lgan e'tiborning pasayishi va ijtimoiy modernizatsiyaning faollashuvi vatanparvarlik belgisi sifatida baholangan⁸. Bu borada Samuel Hantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asarida keltirishicha, "Asrlar davomida shakllangan madaniyatni o'rniga yangi sivilizatsiyani joriy qilinishi Turkiyani "ikkiga bo'lingan mamlakat" (*torn country*)ga aylantirdi"deb qayd etgan⁹. Keyinchalik, Erdog'an boshchiligidagi ATP hukumat tepasiga kelgach, kamolchilik g'oyasi ham asta-sekin o'tmishda qolib, quyidagi yangi tamoyillar kirib keldi:

"*Qo'shnilar bilan nol muammo*". Ma'lumki, Turkiya tashqi siyosatini tadqiq etuvchi olimlar va ekspertlar Ahmad Dovuto'g'lini Turkiyaning XXI-asrdagi tashqi siyosatini ishlab chiqqan dastlabki arxitektor sifatida qayd etishadi. Ayniqsa uning "*Strategik chuqurlik*" nomli kitobida zamonaviy Turkiya tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, "Qo'shnilar bilan nol muammo" tamoyili va mamlakatning turli mintaqalardagi tashqi siyosati qanday bo'lishi kerakligini belgilab bergan. U Turkiyani "markaziy mamlakat" sifatida barcha qo'shni mamlakat bilan munosabatlarni o'rnatish zarurligini ta'kidlagan. Dovuto'g'li Turkiyani Yaqin Sharq, Bolqon, Kavkaz, Markaziy Osiyo, Kaspiy, O'rta Yer dengizi va Qora dengizning barcha mintaqalarida bir vaqtning o'zida yetakchi rol o'ynashga qodir bo'lgan davlat ekanini qayd etgan¹⁰. Biroq, mazkur doktrina amalga oshmadi aksincha 2010-2020 yillarda deyarli barcha qo'shnilar bilan aloqalar sovuqlashdi.

"*Turkiy dunyo*". Ushbu mafkura turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, birgalikda rivojlanish va global siyosatda o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Hozirda Turkiya turkiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish uchun Turkiy Davlatlar

⁷ Zakaria, Fareed. Foreign Affairs. Jul/Aug2019, Vol. 98 Issue 4, p.10-16.; A.Cooley, D.Nexon. Exit from Hegemony: The Unraveling of the American Global OrderThe Unraveling of the American Global Order. May 2020. DOI: 10.1093/oso/9780190916473.001.0001

⁸ Идеи Кемалю Ататурка звучат неожиданно актуально для современного российского общества. URL: <https://www.forbes.ru/mneniya-column/mir/308421-rossiya-i-turtsiya-pamyat-o-svetskom-gosudarstve> (murojaat qilingan sana:20.03.2024).

⁹ Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order // SIMON & SCHUSTER Rockefeller Center. 1996. p. 74.

¹⁰ Davutoğlu Ahmet. Stratejik Derinlik. (2012) Türkiye'nin Uluslararası Konumu. İstanbul. p 118.

Tashkiloti, “Turkiy akademiya”, “Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi”, “TIKA”, “TURKSOY” kabi platformalardan faol foydalanmoqda.

“*Turkiya asri*”. Erdog‘an tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oya mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, tashqi aloqalarni kengaytirishga, iqtisodiy rivojlanish va farovonlikni ta‘minlashga hamda global tartibotni o‘zgartirishga va unga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan¹¹. Ushbu konsepsiya to‘g‘risida SETA “aql markazi”ning bosh koordinatori Burhanettin Duranning fikricha, ushbu konsepsiya Turkiyaning tashqi siyosat va xavfsizlik sohalaridagi yutuqlarini mustahkamlashni hamda mamlakat ichida keng qamrovli siyosatni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi¹². Shuningdek, Nurshin Atesho‘g‘luning fikricha, mazkur konsepsiya orqali Anqara o‘z qadriyatlaridan va manfaatlaridan voz kechmagan holda, Bolqondan Afrikagacha, Egey dengizidan O‘rta yer dengizi va Qora dengizgacha bo‘lgan turli geografik hududlarda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashni tashqi siyosat va xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb hisoblaydi¹³. Qolaversa, Muhittin Atamanning qarashicha, ushbu konsepsiya qudratli Turkiyani barpo etishning ulkan loyihasi sifatida ko‘rish mumkin¹⁴. Fikrimizcha, mazkur g‘oya Turkiyaning xalqaro tashkilotlarda, tinchlikni saqlash harakatlarida va global diplomatiyada yanada faol rol o‘ynashini, shu bilan birga, dunyoda yanada adolatli va teng huquqli tartibni targ‘ib qilishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilmiy jamoatchilik vakillari doirasida “*Neousmonizm*” (neousmoniylik) mafkurasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “*Neousmonizm*” atamasi ilk bor 1985-yilda D.Berchard tomonidan qo‘llanilgan¹⁵. Ushbu strategiyaning maqsadi sobiq qudratli Usmonlilar imperiyasi hududidagi ta‘sirni kengaytirish, o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash va imperiya davridagi buyuklikni qayta tiklashdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishning asosiy vositasi sifatida “yumshoq kuch”ni keltirish mumkin. Olimlar Erdog‘an davriga kelib ushbu siyosat rivojlana boshlaganini ta‘kidlashadi. Xususan, 2020-yil oktabr oyida Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputatlari oldidagi nutqlaridan birida Erdog‘an Quddusni turk shahri ekanini ta‘kidlashi¹⁶, Aya Sofiya ibodatxonasini masjid holatiga qaytarishi¹⁷, Usmoniyarga oid tarixiy filmlarni ko‘paytirishi¹⁸ va 2024-yil dekabr oyida Turkiya tomonidan qo‘llab-quvvatlangan muxolif kuchlarning Suriya hokimiyatiga kelishi va Suriyada Eron va Rossiyaning ta‘sirini kamaytirib

¹¹ “TÜRKIYE YÜZYILI”NDA MİLLİ DIŞ POLİTİKA. <https://www.mfa.gov.tr/genel-gorunum.tr.mfa> (murojaat qilingan sana:20.03.2025)

¹² *Burhanettin Duran*. Ak Parti ve Türkiye’nin Geleceği. TÜRK DIŞ POLİTİKASI YILLIĞI 2022. SETA. S.23

¹³ *Nurşin Ateşoğlu Güney*. Türkiye’nin Yeni Yüzyıl Vizyonu, Batı ve Liberal Dünya Düzeni Tartışmaları. TÜRK DIŞ POLİTİKASI YILLIĞI 2022. SETA. S.41

¹⁴ *Muhittin Ataman*. Türkiye yüzyili: Türkiye ekseninin inşası için yeni bir dış politika vizyonu. TÜRK DIŞ POLİTİKASI YILLIĞI 2022. SETA. S.86

¹⁵ *David Barchard*. Turkey and the West. Royal Institute of International Moin Ali Khan Affairs. (1985). ISBN 0710206186.

¹⁶ *Аватков В.А.* Внешняя и внутренняя политика Турции: ключевые изменения 2020 года // Свободная мысл. 2021. № 1 (1685). С. 84.

¹⁷ *Шаврина М.С.* Айя-София в статусе мечети: международные оценки и перспективы функционирования // Ислам в общественно-политической жизни стран и народов. 2020. Т. 16, № 3. С. 179.

¹⁸ *Товсултанов Р.А., Товсултанова М.Ш., Галимова Л.Н.* Турецкая политическая доктрина «неоосманизма»: между символическим и реальным содержанием // Самарский научный вестник. 2021. Т. 10, № 4. С. 231. DOI: 10.17816/snv2021104216.

mamlakatda asosiy yetakchiga aylanishi kabi misollarni keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda Turkiyaning yuqorida qayd etilgan konsepsiyalari xalqaro sahnada “o‘zgartiruvchi o‘yinchi” sifatida baholashga asos bo‘lmoqda. Sababi, bugungi kunda jahon siyosiy maydonida sodir bo‘layotgan jarayonlarda Turkiya o‘z manfaatlarini munosib himoya qilib, vaziyatni o‘z foydasiga o‘zgatira olayotgani va global miqyosda har qanday qudratli yirik kuch markazlarini Turkiya bilan hisoblashishga majbur qilayotgani bilan alohida ajralib turadi.

“O‘zgarayotgan dunyo tartiboti davrida Turkiya tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan ikkinchi bob Turkiyaning Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz kabi mintaqalarda sodir bo‘layotgan mojarolarni hal qilish bo‘yicha olib borayotgan siyosatini tahlil qilish, Anqaraning Yaqin Sharq, G‘arb, Shimoliy Afrika va turkiy davlatlarga nisbatan olib borayotgan faol tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini va ta’sirini aniqlashga bag‘ishlangan.

Darhaqiqat, bugungi kunda Turkiya mintaqaviy nizolarni hal qilishda ham faol ishtirok etuvchi davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, ATP hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng, mamlakatda vositachilikni rivojlantirish uchun bir qancha ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro anjumanlar va Tashqi ishlar vazirligida vositachilikka ixtisoslashgan alohida boshqarma tashkil etildi¹⁹. So‘nggi yillarda Erdog‘an hukumati *vositachilik diplomatiyasini* ishga solib, bir qator strategik yo‘nalishlar orqali mintaqaviy nizolarni hal qilishga erishmoqda. Xususan, 2022-yilda boshlangan Rossiya-Ukraina o‘rtasidagi urushda vositachilik qilib, “Don bitimi” bo‘yicha kelishuvga erishdi. Turkiyaning ushbu vositachiligi natijasida millionlab tonna don mahsulotlari Afrika, Yaqin Sharq va Osiyo davlatlariga eksport qilindi va muhim ahamiyatga ega bo‘ldi²⁰. Bundan tashqari, Turkiya Eron (2010), Qirg‘iziston (2010), Falastin (2011), Sudan (2011), Eritreya (2011), Somali (2013), Myanma (2013), Mali (2013), Liviya (2014), Afg‘oniston-Pokiston (2014), Filippin (2014), Suriya (Ostona jarayonlari) (2017-2022), Qatar (2017), Afg‘oniston (2020-2021), Sudan-Efiopiya (2021), Rossiya-Ukraina (2023), Kosovo-Serbiya (2023), Efiopiya-Somaliland (2024) kabi davlatlarda sodir bo‘lgan mojarolarida vositachilik qildi. Shuningdek, Turkiya xalqaro tashkilotlar doirasida vositachilikka qo‘shgan muhim hissasi 2010-yil 24-sentabrda Nyu-Yorkda Finlyandiya bilan hamkorlikda “Tinchlik uchun vositachilik” tashabbusini boshlashi bo‘ldi²¹. Umuman olganda, Turkiyaning preventiv diplomatiya va vositachilikka bergan ahamiyati va mavjud nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish bo‘yicha samarali sa‘y-harakatlari o‘z natijasini bermoqda²².

Shuningdek, Turkiya mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun Suriya va Iroqda kurd jangarilariga va terrorchilik guruhlariga qarshi bir nechta *harbiy operatsiyalar* o‘tkazdi. Jumladan, “Firoq qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog‘i”, “Bahor qalqoni” va “Panja qilich” deb nomlangan bir qator

¹⁹ *Şahin Y.* (2021). Türkiyenin Barış Politikası In F. Köksoy (Ed.), Küresel Politikalar ve Bölgesel Dönüşümler. p.259.

²⁰ Год Черноморской зерновой инициативы: основные факты и цифры // <https://news.un.org/ru/story/2023/07/1442732> (murojaat qilingan sana: 27.11.2024)

²¹ “Uyuşmazlıkların Çözümü ve Arabuluculuk”, T.C. Dışişleri Bakanlığı, <https://www.mfa.gov.tr/uyusmazliklarin-cozumu-ve-arabuluculuk.tr.mfa>, (murojaat qilingan sana:20.03.2025).

²² *Yücel Acer.* Arabuluculuk ve Türkiye'nin arabuluculuk faaliyetleri. Türk Dış Politikası Yıllığı 2023. P.61.

operatsiyalar Turkiyaning milliy xavfsizligini himoya qilish va chegara hududlarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Anqara ushbu harbiy amaliyotlarni xalqaro huquq normalari doirasida amalga oshirilganini ma'lum qilgan²³. Qolaversa, Liviyadagi fuqarolar urushida Turkiya Milliy Kelishuv Hukumatini (MKH) qo'llab-quvvatlagan holda unga harbiy yordam ko'rsatdi.

Bugungi kunda, Turkiya mintaqaviy nizolar natijasida zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish maqsadida *gumanitar dasturlarni* ham amalga oshirmoqda. Xususan, Suriyadagi urush davrida Turkiya 2022-yilning o'zida 3,6 mln qochqinlarni qabul qilib²⁴, ularni joylashtirish va yordam ko'rsatishda faol ishtirok etdi. Bundan tashqari, Isroilning G'azoga uyushtirgan qo'poruvchilik harakatlaridan jabr ko'rgan aholiga zarur ko'maklar berdi va gumanitar yordam ko'rsatdi.

Turkiya *mintaqaviy ittifoqlarni mustahkamlash* orqali nizolarni hal qilmoqda. Xususan, Anqara Ozarbayjon-Armaniston o'rtasidagi Tog'li Qorabog' mojarosida to'liq Ozarbayjonni qo'llab-quvvatladi. Natijada, Ozarbayjon Tog'li Qorabog' hududini to'liq qaytarib oldi. Tahlilchilar jang taqdirini aynan "turk dronlari" hal qilganini va bu orqali Turkiya Janubiy Kavkazda faol rol o'ynayotganini va bu kelajakda Rossiyaning mintaqadagi uzoq muddatli hukmronligiga putur yetkazishini ta'kidlashdi²⁵. Tog'li Qorabog' mojarosi Turkiyaning ko'magi orqali hal etilishi uning nafaqat Janubiy Kavkaz mintaqasida, balki, jahon siyosiy sahnasida ham mavqeyining keskin oshishiga olib keldi. Fikrimizcha, Ozarbayjonning hududiy yaxlitligining tiklanishi, yangi koridorlarning ochilishi, Markaziy Osiyoda yagona transport koridorini shakllantirish bo'yicha keng imkoniyatlarning paydo bo'lishi Turkiya tashqi siyosatining ulkan g'alabasidir.

Barchamizga ma'lumki, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida G'arb yo'nalishi ham ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu aloqalar asosan NATO, Yevropa Ittifoqi (YeI), va AQSh bilan bog'liq ko'plab iqtisodiy, siyosiy, va xavfsizlikka oid hamkorliklarga asoslangan. Biroq, Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharqdagi geosiyosiy mojarolar va Turkiyaning Rossiya bilan harbiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishi²⁶tufayli ushbu munosabatlarda ma'lum darajada ziddiyatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, Turkiya YeI a'zo bo'lish uchun harakat qilmoqda. Ammo, xalqaro va mintaqaviy muammolar (*Kipr mojarosi, Arman genosidi, Suriya inqirozi, Liviya muammosi, Sharqiy O'rta yer dengizdagi Kipr hududiy suvlarida burg'ulash ishlari*)ning mavjudligi Turkiyani YeIga a'zo bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda.

Hozirgi davrda Turkiya va turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlar jahon hamjamiyatining katta qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Turkiyaning 1990-yillardagi

²³ Doğan Şafak Polat. Türkiye'nin Suriye'nin Kuzeyindeki Askerî Harekâtının Amaçları ve Sonuçları // Güv. Str. Derg. 2020, 16(33): 53-96

²⁴ Global Trends forced displacement in 2022. UNHCR. – P.21. <https://www.unhcr.org/sites/default/files/2023-06/global-trends-report-2022.pdf> (murojaat qilingan sana: 06.03.2025)

²⁵ What's Turkey's role in the Nagorno-Karabakh conflict? <https://www.aljazeera.com/features/2020/10/30/whats-turkeys-role-in-the-nagorno-karabakh-conflict> (murojaat qilingan sana: 06.03.2025)

²⁶ Эрдоган признал, что покупка С-400 у РФ имела смысл, несмотря на трения в отношениях с США. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/12540255> (дата обращения: 15.01.2024)

turkiy davlatlarga nisbatan olib borgan tashqi siyosatini ikki davrga ajratishimiz mumkin: *Birinchi davr – turk modeli (1991-1993)*. Ushbu davrda mustaqillikka erishgan turkiy xalqlarning yangi davlatchilikni shakllantirishda “Turk modeli” asosiy o‘rin tutishi lozim edi. Qolaversa, Turkiya turkiy davlatlar bilan Turkiy ittifoq tuzmoqchi bo‘ldi. Lekin bu amalga oshmadi. *Ikkinchi davr (1993-2000)*. Ushbu davrda ham Turkiya turkiy davlatlarning siyosiy va iqtisodiy tizimini shakllantirishda “katta og‘a” rolini olmoqchi bo‘ldi. Lekin turkiy davlatlar boshqa “katta og‘a”ni hohlamadi²⁷.

Bugungi kunda esa Turkiya mintaqada keng ko‘lamli pragmatik siyosat yuritmoqda. Turkiyaning turkiy davlatlar bilan munosabatlarida Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) ham muhim rol o‘ynamoqda. Ta’kidlash joziki, TDT tarkibida TURKSOY, TURKPA (Parlament assambleyasi), Turkiy Investitsiya Fondi, TDT Oqsoqollar Kengashi, Turkiy Akademiya, Turkiy Madaniyat va Meros Jamg‘armasi kabi tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotganligi, “Turkiy davlatlar banklar Assotsiatsiyasi”, “Turkiy davlatlar temiryo‘llari idoralari kengashi”, “Axborot va telekommunikatsiya sohalarda hamkorlik” kabi loyihalar va “Turkiy dunyo 2040-nigohi” strategiyalarni qabul qilinishi Turkiya va turkiy davlatlarning munosabatlarini yanada rivojlantirmoqda. Qolaversa, Turkiya turkiy davlatlar bilan mudofaa va xavfsizlik sohasida ham yaqin hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan. Bunga harbiy texnologiyalar, jumladan uchuvchisiz boshqariladigan dronlar eksporti ham kiradi. Bundan tashqari, Turkiya turkiy xalqlar orasida umumiy alifbo yaratishga harakat qilmoqda. Xususan, Turkiy dunyo umumiy alifbo komissiyasi 2024-yilda 34 harfdan iborat mushtarak turkiy alifbo taklifini kelishib olganini ma’lum qildi²⁸. Shuningdek, Turkiya Milliy ta’lim vazirligi mamlakatda tarix fani o‘quv dasturiga “Markaziy Osiyo” atamasi o‘rniga “Turkiston” atamasini qo‘llashini ma’lum qildi²⁹. Ushbu harakatlarni Anqara geosiyosiy strategiyasining bir qismi sifatida baholashimiz mumkin. Bundan tashqari, Turkiya turkiy davlatlarga o‘zining “yumshoq kuch” va “Turkiy dunyo” kabi g‘oyalarni qo‘llash orqali siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan birlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashabbuslar ishlab chiqmoqda. Xususan, *TDT, TIKA, YTB, TURKPA, Diyanet, TURKSOY, Yunus Emre* kabi tashkilotlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, iqtisodiy, ta’lim, fan, madaniyat, tibbiyot va sog‘liqni saqlash, turizm, kino sanoati kabi sohalarda aloqalarni rivojlanishi fikrimiz dalilidir. Qolaversa, “O‘rta marshrut” deb nom olgan Transkaspiy tranzit yo‘lagi loyihasi va turkiy dunyoni birlashtiradigan Zangazur yo‘lagi Turkiya tashqi siyosatining kelajakdagi muhim maqsadlari hisoblanadi. Lekin, Turkiyaning turkiy davlatlarga nisbatan olib borayotgan siyosatini rus siyosatshunoslari “panturkizm”, “panturonizm” yoki “panislomizm”ning yangicha ko‘rinishi sifatida baho

²⁷ Дружиловский С. Б. Турция: привычка управлять // Россия в глобальной политике. 13.12.2005. № 6. URL: <https://globalaffairs.ru/articles/turcziya-privychka-upravlyat/> (murojaat etilgan sana:24.05.2024.)

²⁸ Turkiy davlatlar vakillari yagona alifboga kelishib oldi (foto). <https://daryo.uz/2024/09/12/turkiy-davlatlar-vakillari-yagona-alifboga-kelishib-oldi-foto>; Новая вежа в истории тюркских народов: согласован единый алфавит. <https://oxu.az/ru/v-mire/novaya-veha-v-istorii-tyurkskih-narodov-soglasovan-edinyj-alfavit> (дата обращения: 20.03.2025).

²⁹ Turkiya “Markaziy Osiyo” atamasini “Turkiston”ga o‘zgartiradi. <https://daryo.uz/2024/10/09/turkiya-markaziy-osiyo-atamasini-turkiston-deb-ozgartiradi> (murojaat qilingan sana:12.11.2024)

bermoqda³⁰. Xususan, ularning farazicha, “Turkiya turkiy davlatlarni birlashtirib, “Turon” degan davlat qurish uchun harakat qilmoqda”³¹. Fikrimizcha, Anqara yuritayotgan siyosatda millatchilik g‘oyalari mavjud emas, aksincha, hozirda Turkiya barcha turkiy davlatlar bilan o‘zaro teng huquqli pragmatik siyosat olib bormoqda. Qolaversa, ko‘pgina tadqiqotchilar ham Anqaraning ushbu siyosatini “panturkizm deb emas, balki iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohasidagi mintaqaviy muloqot” deb ta’riflagan³².

“Zamonaviy dunyo tartiboti shakllanishida Turkiya tashqi siyosatining o‘rni” deb nomlangan uchinchi bobida Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi roli va ahamiyatini aniqlash va Anqara tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosatning nafaqat mintaqaga va balki zamonaviy xalqaro munosabatlarga ta’sirini aniqlashga bag‘ishlangan. Shuningdek, Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi tashqi siyosiy munosabatlarning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan tegishli xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ma’lumki, bugungi kunda Erdog‘an boshchiligidagi hukumat faqat G‘arbga bog‘lanib qolmasdan ko‘p vektorli pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda. Uning davridagi Turkiya – tashqi siyosatdagi faol va qat’iy pozitsiyasi, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vositachilik diplomatiyasi, islom dunyosida (*turkiy dunyoda ham*) yetakchilikka da’vogarligi orqali dunyoda o‘z siyosiy vazniga ega bo‘lgan mamlakatga aylanib bormoqda. Ushbu tashqi siyosat negizida Erdog‘an hukumati qo‘llayotgan “Dunyo beshdan katta” shiori, “Turkiya asri”, “Turkiy dunyo” kabi konsepsiyalar muhim o‘rin tutmoqda. Shuningdek, Turkiya mintaqaviy xavfsizlik, “yumshoq kuch”, migratsiya siyosati, harbiy harakatlardagi ishtiroki va Yevroosiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz mintaqalaridagi geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlash orqali dunyo miqyosida o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilmoqda. Bu holat mintaqadagi kuch muvozanatiga, Yevropa Ittifoqi va NATO bilan munosabatlariga hamda xalqaro xavfsizlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa xalqaro munosabatlarda yangi kuch markazi sifatida uning o‘rnini yanada mustahkamlamoqda va bunda mamlakat rahbari Erdog‘an omilining o‘rni katta. Lekin, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir etuvchi quyidagi kuchlar Turkiyaning “global o‘yinchi” maqomiga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda: 1. *Modernistlar (Otaturk davomchilari)*; 2. *Konservatorlar*; 3. *Islom muhofazakorlari*. Bugungi kunda, ushbu yo‘nalish tarafdorlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar Turkiyaning nafaqat mintaqada balki, dunyo miqyosidagi nufuziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

³⁰ *Надеин-Раевский В.* 2022а. История пантуркизма и его современные сторонники. Часть 1. Пантуркизм: основные вехи истории. Перспективы. Электронный журнал. №1. С. 62–73. DOI: 10.32726/2411-3417-2022-1-62-73; *Надеин-Раевский В.* 2022б. История пантуркизма и его современные сторонники. Часть 2. Новый этап пантуркистских надежд. Перспективы. Электронный журнал. №2. С. 94–108. DOI: 10.32726/2411-3417-2022-2-94-108

³¹ *Зареванд.* Турция и пантуранизм. М.: Ключ-С, 2015. С.79.

³² *Ersanli B.* Türkiye'nin Dış İlişkilerinde Türkülük ve Avrasya // Bağımsizliklannin 10. Yilinda Türk Cumhuriyetleri: Azerbaycan, Kazakistan, Kirgizistan, Özbekistan, Türkmenistan / Ed. Emine Gürsoy-Naskali, Erdal Çahin. Haarlem, 2002. S. 149–154.

Ma'lumki, geografik joylashuv, geosiyosiy roli, geoiqtisodiy o'rni, harbiy salohiyati, global kuch markazlari bilan yaqin aloqalar va boshqa ko'plab omillar bugungi kunda Turkiyaning faol tashqi siyosat olib borishiga imkoniyat yaratmoqda. Turkiyaning yangilanayotgan dunyo tartibotidagi roli va ahamiyatini ochib berish uchun quyidagi omillarni tahlil qilishimiz joiz:

Geosiyosiy joylashuvning ahamiyati. Turkiya o'zining strategik joylashuvi bilan Yevropa va Osiyo o'rtasida muhim geosiyosiy rol o'ynab "ko'priq" vazifasini bajarmoqda. Qolaversa, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari orqali O'rta yer dengizi va Qora dengizni birlashtiruvchi transport yo'llari ham Turkiyani mintaqaviy va global aloqalarda yetakchi davlatlardan biriga aylantirmoqda. Shuningdek, Turkiya NATOning janubiy qanotidagi asosiy davlat sifatida Yevropa xavfsizlik tizimining ajralmas bo'lagi bo'lib qolmoqda.

Geoiqtisodiy roli. Turkiya Yevropa va Osiyo o'rtasidagi tranzit hudud sifatida xalqaro savdo va transport tizimida muhim o'ringa ega. Shu bilan birga, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari orqali energiya va savdo yuklarini boshqarishdagi ustunligi Anqaraning global ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, Turkiya 73% neft va 72% dunyo gaz zaxiralariga ega bo'lgan davlatlar bilan qo'shni hisoblanadi³³. Bu degani savdo bilan shug'ullanuvchi har qanday global kuch markazlari ham Turkiya bilan hisoblashishiga to'g'ri keladi.

Ko'p qirrali pragmatik siyosat. Turkiyaning tashqi siyosati muvozanatli va moslashuvchan siyosat bo'lib, turli kuchlar bilan aloqalarni saqlashga asoslangan. Xususan, Turkiya NATOning faol a'zosi bo'lib qolishda davom etsa-da, Rossiya, Xitoy va mintaqaviy davlatlar bilan ham hamkorlikni rivojlantirmoqda. Bu esa Anqaraga G'arb va Sharq o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini bermoqda. Bu borada tahlilchilarning fikricha, Turkiya har qanday harbiy blokga haddan tashqari bog'liqlikdan qochishga intiladi. Ushbu pragmatizm Turkiyaga strategik moslashuvchanlikni maksimal darajada oshirish imkonini beradi³⁴.

Mamlakatning harbiy salohiyati. Ma'lumki, Turkiya Respublikasi tashkil topganidan to 2000-yillarning o'rtalarigacha armiya ichki va tashqi siyosat qarorlarini qabul qilishga ta'sir o'tkazishning samarali vositasi bo'lib kelgan va siyosiy jarayonlarga bevosita aralashgan³⁵. Lekin, keyinchalik ATP davrida armiyaning siyosiy institut sifatidagi faoliyati o'zgarishga uchradi. Biroq, siyosiy tizimdagi harbiy ta'sir institutlarini yo'q qilish jarayoni turk armiyasining jangovar samaradorligini pasaytirmadi. Aksincha, 2025-yilga kelib, "Global kuch indeksi"ning (*Global power index*) berayotgan ma'lumotiga ko'ra, Turkiya harbiy qudrat bo'yicha jahonda 9-o'rinni qayd etgan³⁶. Bugungi kunda Turkiya qurolli kuchlari tarkibida 360 mingga yaqin faol xizmatdagi harbiy xodim va 180 ming zaxiradagi askar mavjud. Qolaversa, Turkiya dunyodagi harbiy bazalar va obyektlar soni bo'yicha top 5 talikka kiradi. 2025-yil ma'lumotlarga ko'ra ularning

